

JADID – HAR VAQT G‘AFLAT UYQUSIDAN UYG‘OTUVCHI MILLAT ONGINING OCHQICHIDIR

Yusufova Munisa

TDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadidchilik harakati asoschilari, ularning g‘oyalari, bu harakat yo‘lida bosib o‘tgan qiyinchiliklari haqida so‘z boradi. Maqolada jadidchilikka asos solgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon va boshqa jadidchilik namoyondalarining milliy istiqlol yo‘lida, adolat uchun kurashganliklari yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, jadid, adabiyot, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Turkiston, jurnal, gazeta, adib, maktab.*

Abstract: *This article talks about the foundations of the Jadidist movement, their ideas, and the difficulties encountered on the way to this movement. The article highlights the struggle for justice by Mahmudhoja Behbudi, Abdulla Avloni, Fitrat, Chalpon and others, who founded the Jadidism, in the year of national independence.*

Keywords: *Jadidist, jadid, literature, Abdulla Avloni, Munavvarqori, Mahmudxoja Behbudi, Turkestan, journal, newspaper, writer, school.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье рассказывается об основах джадидистского движения, их идеях и трудностях, возникших на пути к этому движению. В статье освещается борьба за справедливость основателей джадидизма Махмудходжи Бехбуди, Абдуллы Авлони, Фитрата, Чалпона и других в год национальной независимости.*

Ключевое слово: *джадидистского, джадид, литература, Абдулла Авлони, Мунавваркори, Махмудходжи Бехбуди, Туркестан, журнал, газета, писатель, школа.*

Jadidchilik Turkistonda XIX asrning oxirida maydonga keldi, XX asrning boshlaridan shakllandi va bundan keyin maktab-maorif isloh qilina boshlandi, yangi adabiyotlar, bir so‘z bilan aytganda, yangi tafakkur maydonga keldi. “Jadidchilik”ning asosida “jadid” so‘zi yotadi.

“Jadid” so‘zining ma‘nosi “yangi” deganidir. Bu “yangi” shunchaki “yangi so‘z” emas, “yangi g‘oya”, “yangi tafakkur”, “yangi inson” kabi ko‘pgina va keng tushunchalarni o‘zida jo etgandir.

Jadidchilik harakati bilamizki, dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrim-tatarlar o‘rtasida vujudga kelgan. Jadidchilik harakatining namoyondalari oldin o‘zlarini “taraqqiyparvarlar”

deb atashgan bo'lsa, keyinchalik o'zlarini yangi nom bilan ya'ni "jadidlar" deb atashganlar. Jadidlar mahalliy aholini jahon taraqqiyotidan anchagina orqada qolganliklarini tushungan va jamiyatni isloh qilishi kerak ekanligini anglab yetishgan. Bu harakat siyosiy harakat edi.

Muhokama va Natijalar

Jadidlar – xalqning deyarli hamma tabaqalarida – hunarmand, duradgor, savdogar, dehqon hamda ziyolilar orasida ham mavjud edi. Jadidlarning orasidan sanoat, ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdoni, yetuk olimlar yetishib chiqqan bo'lib, ular o'z yurtlarini obod va mustaqil ko'rishni orzu qildilar, shu yo'lda kurashdilar, shu yo'lda jonlarini fido qildilar. Biz bilamizki, jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar:

- Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish
- Shariatni isloh qilish
- Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash
- Xalqqa ma'rifat tarqatish
- Barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish
- Keyinchalik demokratik Respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish.

Jadidchilik, avvalo, madaniy bir sohadagi harakat, ya'ni ayollar va erkaklarning teng huquqliligi, fan yutuqlaridan foydalanish hamda dunyoviy bilimlarni o'rganish va taraqqiyot uchun kurashishga chaqirishgan. Ismoil Obiliy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ashurali Zohiriylarni jadidchilikning yorqin namunalari deya ayta olamiz desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ular jadidchilik harakati davomida o'z matbuotlarini shakllantirdi. Jadidlar Toshkent, Buxoro, Samarqand hamda Qo'qonda o'z gazeta va jurnallarini chop ettirdilar. Masalan, Toshkentda "Taraqqiy" (muharriri- Ismoil Obiliy), "Shuhrat" (muharriri Abdulla Avloniy), "Xurshid" (muharriri Munavvarqori), "Osiyo" (muharriri Abmadjon Bektemirov) Buxoroda, "Buxoroyi sharif", "Turon", Samarqandda, "Samarqand" (muharriri Mahmudxo'ja Behbudiy), Qo'qonda "Sadoyi Farg'ona" gazetalarini hamda "Turon", "Oyina", "Al-isloh" jurnallari chop etilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori kabilar jadidchilik harakatini yuqori cho'qqiga olib chiqqan jadidlar hisoblanadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqandda tug'ilgan. Dramaturg, noshir, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakati yetakchilaridan biridir. U Ahmad Yassaviy avlodidan. Mahmudxo'ja Behbudiy Arabiston, Misr, Turkiyaga sayohat qiladi va shu sayohat davomida yangi maktab ya'ni "usuli maktab" ochish fikri qayta uyg'onadi va jon-jahdi bilan shu maktabni ochishga kirishadi. Ko'p o'tmay Samarqandda va Rajabaminda maktab

ochadi. Bunga Ajziy, Abdulqodir Shakuriylar hamkorlik qiladi. Qozon va Ufaga ham borib, u yerdagi usul maktablari bilan ham tanishadi. Yangi ochgan maktablari uchun darsliklar tuzishga kirishadi.

Yana bir jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi bu – Abdulla Avloniydir. Biz bilamizki, Abdulla Avloniy XX asr boshida jadidchilik harakatiga qo'shiladi va Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida faoliyat yuritadi. Mahmudxo'ja Behbudiy kabi Abdulla Avloniy ham mahalla bolalar uchun usul maktabini ochadi. Toshkent shahrining Mirobod mahallasida ochilgan bu maktabda o'zi ham ona tili va adabiyot fanidan dars beradi. 1909-yilda "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli to'rt qismdan iborat she'riy to'plamining birinchi juz'ini nashr ettiradi va shu yilda "Jamiyati xayriya" jamg'armasini tuzib, yetim bolalarni o'qitadi. O'zi ochgan maktablarga o'zi darsliklar, qo'llanmalar yozib, nashr ettiradi. Jumladan, "Birinchi muallim" , "Ikkinchi muallim" , " Turkiy guliston yoxud axloq" 4 juzd(qism)li, "Adabiyot yoxud milliy she'rlar", "Maktab guliston" , "Mardikorlar ashulasi" nomlari bilan bosilib chiqqan kitoblaridan o'zi ochgan maktablardagi o'quvchi yoshlarni o'qitish uchun ham foydalangan. Abdulla Avloniy juda ko'plab she'rlar ham yozgan. Uning she'rlarida xalq didaktikasi bilan bir qatorda yangi zamon pedagogikasi ham uyg'unlashib ketadi. Masalan, adibning "Maktab" she'rida :

Maktab misni tillo qilur,

Maktab sizni mullo qilur, – deb yozadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, maktab inson uchun zarur, u insonni zulm, nohaqlik, adolatsizliklardan xalos etuvchi bir najot yo'lidir. Bu ikki baytni keltirib o'tish bilan nima demoqchiman: Abdulla Avloniy mahalla yoshlarni bilim olishlari uchun qo'lidan kelganicha jon-jahdi bilan harakat qiladi. Oktabr inqilobidan keyin xalqqa va'da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodiga tushkin kayfiyatni olib kirdi. Buni Abdulla Avloniy "Xafalik soatda" she'rida bayon qiladi.

Abdulla Avloniy Toshkentda 1934-yil 25-avgustda 56 yoshida vafot etgan va Botkin ko'chasidagi qabristonga dafn qilingan. Abdulla Avloniy xalq dushmani sifatida qamalmagan, qatag'on ham qilinmagan, lekin uning ijodi 1966-yilgacha o'rganilmagan. Hozirda Toshkent shahrida ko'chaga, mahallalarga Abdulla Avloniy nomi berilgan. Adiblar xiyoboniga Abdulla Avloniyning haykali o'rnatilgan.

Mana shunday ma'rifat tarqatuvchilardan yana biri Munavvarqori Abdurashidxonovdir. Munavvarqori Abdurashidxonov 1878-yil 4-noyabrda Toshkentda tug'iladi. O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yo'l boshchisi, XX asr o'zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, adib va shoir,

yangi milliy teatr asoschilaridan biridir. Otasidan yosh yetim qolganligi sababli boshlang'ich ta'limni onasidan oladi. Oilada uchinchi farzand bo'lganligi uchun akalari A'zamxon va Muslimxonlar ham unga muallimlik qiladi. Keyinchalik esa o'z davrining eng mashhur o'qituvchisi Usmon domladan ilmi qiroat va tajvidni o'rganadi. Toshkentda Yunusxon madrasasida o'qigan.

1901-yilda yangi usuli jadid maktabini ochadi, bu maktab uchun o'zi o'quv dastur va darsliklar yaratadi. Bu maktablar uchun o'qish kitoblarini yozib, nashr qildiradi. "Adibi avval" ("Birinchi adib"1907) alifbe kitobi, "Adibi soniy" ("Ikkinchi adib"1907) shular jumlasidandir.

Munavvarqori ibn Abdurashidxon o'z faoliyati muharrirlik, adiblik, matbuotchilik bilan cheklanmay, o'sha davrda jiddiy tus olgan siyosiy faoliyatda ham ishtirok etadi. Shuning uchun Munavvarqori mustamlaka hukumati tomonidan ko'p marta hibsga ham olingan. Munavvarqori Abdurashidxonov ma'naviy qoloqlikni qoralaydi va Yevropaning ilm-fanini o'rganishni ilgari suradi. U demokratik davlat tarafdori bo'lgan. Shu bilan birga u vijdon erkinligini birinchi o'ringa qo'ygan. Shu sababli u Qo'qon shahrida Turkiston muhtoriyatini (1917) qo'llab turgan. Munavvarqori Abdurashidxonov umri davomida o'z Vatanini ozod va mustaqil ko'rishni orzu qilgan.

Millatchilikda ayblanib, nohaq qamoqqa olingan Munavvarqori Abdurashidxonov 1929-yil 6-noyabrda Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilingan va Moskvadagi Vagankova qabristoniga dafn etilgan. 1991-yilda rasman rehabilitatsiya qilingan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarini milliy, madaniy ravnaq topishida asosiy omil bo'la oldi. Jadidlar faoliyati davomida har qanday o'g'ir sharoitda ham o'z qarashlarini, o'z intilishlarini hech bir tarafdga o'zgartirishmaydi. Jadidlar xalqni qoloqlik, savodsizlik, qashshoqlikdan, chor hukumatining mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar. Jadidlar targ'ib qilgan bu siyosat yoshlarning ongi va tafakkurini yuksaltirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Abdulla Avloniy hayoti va ijodi" tafakkur.net
2. "Marifatparvar jadidlar", Xalq so'zi onlayn gazetasi (2020-yil 30-sentabr).
3. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: 1994.
4. WWW.wikipedia.uz sayti